

## JAZONI O‘TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI OZOD QILISHNING DOLZARB MASALALARI

**O‘rinboyev Komiljon Umidjon o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti”  
soha mutaxassisligi magistri

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada jazo tushunchasi va uning ahamiyati, jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish tushunchasi, huquqiy ahamiyati hamda qo‘llanilish doirasi yuzasidan turli ilmiy qarashlar o‘rganilgan. Bundan tashqari, tadqiqot ishida rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligida jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilishning o‘ziga xos tomonlari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** jinoiy jazo, jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari ozod qilish, shartli ozod qilish, sud, amnistiya, afv.*

Ma‘lumki, davlat rivojlanib borishi bilan undagi mavjud tizim ham o‘zgarishni, islohotni talab qila boshlaydi. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi va ularning ishlashi mexanizmi ham bundan mustasno emas.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligining jazo tizimida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo turlarida tub islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda dunyodagi eng liberal jinoiy jazo tizimlaridan biri yaratilib, Jinoyat kodeksiga mamlakatimiz parlamenti tomonidan 100 ga yaqin qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyasining 30 moddasiga ko‘ra, jinoyat uchun hukm qilingan har kim qonunda belgilangan tartibda hukmning yuqori turuvchi sud tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi huquqiga, shuningdek afv etish yoki jazoni yengillashtirish to‘g‘risida iltimos qilish huquqiga ega ekanligi keltirilgan.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bir qancha jinoyatlarga oid huquqiy normalar ham inson huquq va erkinliklariga bevosita daxldor ekanligini inobatga olib, ularni ham jinoyat qonunchiligini yanada liberallashtirish va insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan isloh qilish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimiz raxbari Sh.M.Mirziyoev boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlardan ham ko‘zlangan asl maqsad xalq farovonligi, qonun ustuvorligi ta‘minlangan demokratik davlat qurishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

joriy yilning yil 28 yanvardagi 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini belgilab bermoqda va sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim bosqichi bo'lib xizmat qilmoqda<sup>1</sup>.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida ham jamiyat va davlat hayotida eng muhim jabhalarni isloh qilish, yillar davomida to'plangan muammolarni yechimini topish vazifalari belgilandi.

Harakatlar strategiyasining aynan ikkinchi ustuvor yo'nalishi "Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari" masalalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra, sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalari belgilandi.

Jazo nima, degan savol jinoyat huquqi nazariyasida eng murakkab va bahsli masalalar qatoriga kiradi. Jazoni keng, umumijtimoiy ma'noda shaxsga ta'sir ko'rsatish, uning xulq-atvorini tartibga solish usuli sifatida tushunish amalda e'tiroz uyg'otmasa-da, jinoyat-huquqiy kategoriya sifatidagi jazoning mazmun va mohiyati atrofida qizg'in bahslar uzoq yillardan beri davom etib keladi. Qolaversa, insonparvar, ezgulik, inson huquq va erkinliklariga sadoqat, jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish, jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonun ustuvorligini ta'minlash O'zbekistonda barpo etilayotgan erkin jamiyat poydevorini tashkil etadi. Deyarli barcha huquqshunoslar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "jazo bu – davlat majburlovi chorasidir", degan fikr O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 42-moddasining birinchi qismida o'zining tegishli ifodasini topgan. Jinoyat qonunida jazo davlat majburlov chorasi sifatida ta'riflangani uning eng muhim belgilariga ishora qiladi.

Jinoyat uchun jazoning maqsadlarini ta'riflashda faqat ijtimoiy rivojlanish darajasi, jinoyat huquqining funktsiyalari va qonunda mustahkamlangan jinoyat-huquqiy vositalarni hisobga olish bilangina kifoyalanmaydilar. Maqsadni belgilash jarayonida konkret huquqiy hodisa – jazoning mohiyatidan ham kelib chiqadilar. Hodisaning mohiyati va uning maqsadlari o'rtasidagi aloqa, "maqsad hodisadan tashqarida yotadi, biroq unga faqat hodisaning mohiyatini belgilovchi xossalar yordamida erishish mumkin, ya'ni mohiyat loyihalananayotgan maqsadga erishish vositasi hisoblanishi" bilan belgilanadi. Jazoning mohiyati jazolashdan iborat bo'lgani bois, jazoning maqsadlariga jazolarning mazmunini tashkil qiluvchi muayyan huquqiy cheklashlarni mahkumga qo'llash yo'li bilan erishilishi mumkin.

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

Jazodan muddatidan ilgari ozod qilish muammosi jinoiy javobgarlikning mohiyati va undan ozod qilish turlari, jinoyat uchun jazoning maqsadlari va uning samaradorligi to'g'risidagi masalalar bilan uzviy bog'liq. Muddatidan ilgari ozod qilinganlar takroriy jinoyatchiligi darajasining pastligi jazodan ozod qilishning samaradorlik darajasini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Mahkumlarni jazodan ozod qilish masalalarini tartibga soluvchi jinoyat-huquqiy normalarning amaldagi tahriri avvalgi qonun hujjatlari va boshqa normativ hujjatlarning ma'lumotlari hamda ularni qo'llanish amaliyotini hisobga olish va tizimlashtirish natijalariga, shuningdek inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar, jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligi normalariga asoslanadi. Jazodan ozod qilish instituti va jazoni o'tashdan ozod qilish instituti sudning ayblov hukmini ijro etish jarayonini muddatidan ilgari tugatishning jinoyat huquqining mustaqil institutlari hisoblanadigan bir nechta turlarini o'z ichiga oladi. Ularni nomlari zikr etilgan ikki institutga birlashtirish ularning ijtimoiy vazifasi va aybdor uchun kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarning yagonaligini hisobga olganda o'rinli hisoblanadi. Jazodan ozod qilish instituti keng ma'noda ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. U konkret shaxsga berilgan jazoning maqsadlariga erishilganligi yoki erishilmaganligiga qarab, unga qo'llaniladigan jinoiy repressiya hajmiga tuzatish kiritish imkoniyatini beradi. Unda hozirgi jinoyat-huquqiy siyosatning insonparvarligi aks etadi. Ko'rib chiqilayotgan institutning muhimligini inobatga olib, qonun chiqaruvchi jazodan ozod qilish bilan bog'liq normalarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish masalalarini tartibga soluvchi normalardan alohida bobga ajratdi. Ushbu yechimni O'zbekiston Respublikasi JKning shak-shubhasiz afzalliklari jumlasiga kiritish mumkin. Mazkur normalar oldingidek turli qonun hujjatlari (JK, JPK)da emas, balki bitta qonun hujjati (JK)da jamlangani ham ulkan ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi JKga bir-birini takrorlovchi normalar kiritilgani yo'q.

O'zbekiston Respublikasi JKning XIII bobi "Jazodan ozod qilishning turlari" deb nomlangan bo'lib, unga jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish, shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish, aybdorni chin ko'ngildan pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish, shartli hukm qilish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish, amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish kiritilgan.

O'zbekistonlik va chet ellik olimlarning asarlari eng muhim huquqiy va kriminologik tushunchalar to'g'risidagi fundamental tasavvurlarning asosini tashkil qildi, bularning barchasi yangi jinoyat va jinoyat-ijroiya kodekslarini tayyorlash

jarayonida o'z aksini topdi. Ammo qonunchilikka ba'zi bir tuzatishlarni kiritishda shoshma-shosharlik rag'batlantiruvchi normalar o'rtasida raqobatga va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishning ayrim turlari o'rtasida kolliziyaga olib keldi.

Jazodan ozod qilishning turlari vujudga kelish va huquqda mustahkamlanish davriga ko'ra farq qiladi. Masalan, afv etish tarixi asrlar bilan o'lchansa, homilador ayollarning va yosh bolasi bor ayollarning jazoni o'tash muddatini kechiktirish bir necha yillardan beri amal qilayotir. Binobarin, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishning har bir turi haqidagi ilmiy bilimlarning o'rganilganlik darajasi ham bir xil emas.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida qonun hujjatlarida mustahkamlangan mahkumlarni jazodan ozod qilish turlarining muvofiqligini aniqlashdan, inson huquqlari va hamda huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish sohasidagi xalqaro normalar va standartlarni hisobga olgan holda huquqiy ko'rsatmalarni takomillashtirish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Jazodan ozod qilish institutning tushunchasi, mohiyati, o'ziga xos belgilari, jazodan ozod qilishning jinoyat-huquqiy ahamiyati bilan bog'liq munosabatlari tadqiqot ob'ektini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoya kodeksida nazarda tutilgan jazodan ozod qilish turlarining barchasini nazariy, qonunchilik, huquqni qo'llash nuqtai nazarlaridan tizimli o'rganishga bag'ishlangan ilk kompleks monografik tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ishda jinoyat, jinoyat-ijroiya qonunchiligining mahkumlarni jazodan ozod qilishga doir qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilinganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish amaliyotini o'zgartirish bo'yicha tavsiyalar ta'riflangan, shuningdek amnistiya, afv etish va ozod qilinganlarning ijtimoiy moslashuvi to'g'risida yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish zarurligi asoslangan.

Jumladan Jinoyat kodeksining 73-modda. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga bag'ishlangan.

Unga ko'ra:

Ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini;

v) o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan uch qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish:

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;

b) o'ta xavfli retsivistga;

v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;

g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlarni qilganlik, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik, xuddi shuningdek uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etganlik, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinib, jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan sud



jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi.

Xorijiy mamlakatlarga diqqat qaratadigan bo'lsak, xorijiy mamlakatlarda ham jinoiy jazodan ozod qilish tajribalari O'zbekistonning qonunchiligida keltirilgan jazodan ozod qilishga o'xshab ketadi. Bunga sabab esa, har bir davlat o'z qonunchiligini yaratayotganda birinchi navbatda "Xalqaro huquqning" umume'tirof etilgan qoidalariga yuzlanadi. Bunda ular chet el tajribalarini o'rganadi va davlatning o'z milliy an'analariga asoslangan holda o'zi uchun kerakli bo'lgan qoidalaridan foydalangan holda, qonunchilikni yaratadi va unga o'zgartirishlar kiritadilar. Misol uchun xorijiy mamlakatlardan Germaniya, Frantsiya, Shveysariya, shuningdek, MDH mamlakatlaridan Rossiya Ukraina, Ozarbayjon va Belarussiya mamlakatlarining jinoyat huquqida jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligiga asosan, Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar, amalda pushaymon bo'lsalar, ushbu shaxslarning javobgarlikdan va jazodan ozod bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi qoidalar keltirib o'tilgan. Shunga asosan, davlatlarning qonunchiligi bir-birinikiga o'xshab ketadi. Farqli jihatlari ham bo'lishi mumkin, lekin ushbu farq unchalik ko'p bo'lmaydi. Ushbu o'xshashliklarni Germaniya qonunchiligi misolida ko'rib o'tamiz. Misol uchun Germaniyaning Jinoyat kodeksiga murojat qilinadigan bo'lsa, Germaniya Jinoyat kodeksiga asosan, mahkum agarda Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan bir yildan ko'p bo'lmagan, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinadigan bo'lsa, sud mahkumni ogohlantiradi va unga nisbatan jazo tayinlamasdan shartli sinov belgilashi va jazoning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkinligi aytib o'tilgan. Bunda mahkumning qancha jinoyat sodir etganligi, mahkumning shaxsiyati, uning o'tmishdagi hayoti, qilmishining holati, hozirgi qilgan harakatlaridan keyingi xatti-harakatlari, uning yashash sharoiti va to'xtatib turish natijasida kutilayotgan ta'sirlarni va boshqalarni inobatga olgan holda mahkumga nisbatan shartli sinov belgilanishi va jazoning ijrosini to'xtatib qo'yish mumkinligi haqida qoidalar keltirib o'tilgan.

Sud mahkumning qilmishi va shaxsi ayblanganidan keyin alohida holatlar mavjud bo'ladigan bo'lsa, ikki yildan oshmaydigan yuqori sud hukmning ijrosini to'xtatishi mumkin deb keltirib o'tilgan. Bunda yana qaror qabul qilinayotganda, mahkumning jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan harakatlari ham hisobga olinishi lozim hisoblanadi. Germaniyada mahkumlarga beriladigan sinov muddatining davomiyligi besh yildan oshmasligi va ikki yildan kam bo'lmashligi lozimligini sudlar belgilab berishi va ularning qancha muddat tayinlanishni ham sudyalari mustaqil amalga oshirishlari aytib o'tilgan.

Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksi O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida keltirilgan jazoni ijro etish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishga mosdir.

Jazodan ozod qilish muammosi, ayniqsa O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazolarning liberallashtirilishi sharoitida moddiy va protsessual huquqning o'zaro munosabati doirasida tadqiq etilmagan. Shu bois, jazodan ozod qilish muammosini tadqiq etish hozirgi vaqtda jinoyat huquqi nazariyasi, qonunni qo'llash amaliyoti talablari va ehtiyojlari qondirilishiga imkon yaratadi. Mazkur muammoga oid masalalarning ko'p jihatlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonuni asosida, O'zbekiston Respublikasi JKga kiritilgan so'nggi o'zgartish va qo'shimchalar hisobga olinib, ilmiy va amaliy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan va o'rganilmagan. Ayni paytda shu kungacha jazoni o'tashdan ozod qilish muammosini o'rganishga bag'ishlangan kompleks tadqiqot hali o'tkazilgani yo'q.

Jinoyat uchun jazoning umumiy preventiv roli jazo qo'llash tahdidi bilan, shuningdek boshqa shaxslarni amalda jazolash va sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash orqali beqaror fuqarolarga ruhiy ta'sir ko'rsatishdan iboratdir.

Yuqorida aytib o'tilganidek, axloqan tuzatish xulq-atvorni ijobiy tomonga o'zgarishga rag'batlantirishni nazarda tutadi. Shu tufayli ham mahkumlar xulq-atvorini psixologik jihatdan tuzatish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ish bilan mutaxassislar shug'ullanishlari lozim. Shuning uchun ham axloqan tuzatish vositalari qatoriga mahkumlarga psixologik yordam ko'rsatish ham kiritilsa, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Maqolada ta'riflangan xulosalar, takliflar va tavsiyalardan qonunchilikni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin va ular mahkumlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishga tayyorlashning sifatini yaxshilashga, ularning takroriy jinoyatchiligiga qarshi kurashning samaradorligini oshirishga, bunday shaxslarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashishga nisbatan yondashuvlarni o'zgartirishga samarali yordam ko'rsatishga qodir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 01.05.2023 – <https://lex.uz/docs/-6445145>
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/-111453>
- 1.3. Ochilov X. R., Xaydarov Sh. D., Shamsidinov Z. Z. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O‘quv qo‘llanma – T.: TDYU nashriyoti, 2021. – 172 bet
- 1.4. M. Usmonaliyev Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. —T.: “Yangi asr avlodi”, 2010, – 664 b.
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism/M. Rustambayev. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 784 b.
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
- 1.7. 07.02.2017 yildagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

### Internet sahifalari

1. [www.library-tsul.uz](http://www.library-tsul.uz)
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. <https://www.elibrary.ru/>
4. <https://public.sud.uz/>
5. [www.sud.uz](http://www.sud.uz)